TOSHKENT VILOYATI OHANGARON SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 26 - dekabr 337-10-214-Q/23 Ohangaron shahar hokimligi

Ohangaron shahar mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak yakuni bo‘yicha shakllangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ yo‘naltirish tog‘risida

O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasi va O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida”gi KQ-331-IV-sonli Qaroriga muvofiq, Xalq deputatlari Ohangaron shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning 2023-yil 7-dekabrdagi 19-sonli Bayonnomasi va Ohangaron shahar hokimining 1-o‘rinbosari A.Karimdjanovning 04.12.2023-yildagi va Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati mudiri J.Uzakovning 07.12.2023-yildagi Bildirgisi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ohangaron shahar mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak yakuni bo‘yicha shakllangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan 21 nafar mahalla fuqarolar yig‘ini raislarini va 1 nafar shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi xodimini jami 22 ta xodimni bir martalik moddiy rag‘batlantirish uchun 66 000,0 (oltmish olti million) ming so‘m mablag‘, Xalq

deputatlari Ohangaron shahar Kengashi kotibiyatining 3 nafar xodimlarini 2023-yil 3-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig‘i bilan bajarilgan qismi hisobidan 2023-2024-yillarning qish-bahor mavsumida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida jami 5,1 mln. so‘m moddiy rag‘batlantirish uchun hamda shahar mahalliy budjetining 2023-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan “Ayollar daftari” jamg‘armasiga ajratilgan 428 500,0 (to‘rt yuz yigirma sakkiz million besh yuz) ming so‘mdan, 100 000,0 (yuz million) ming so‘mini 2024-yilning aprel oyiga qadar hokimlikning zaxira mablag‘i hisobidan qaytarilishi sharti bilan, shahar hokimligining “Oziq-ovqat xavfsizligi” jamg‘armasiga shahar aholisi iste’moli uchun asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini zaxiraga jamg‘arish xarajatlari uchun yo‘naltirilsin.

3. Ohangaron shahar hokimligi bosh hisobxonasi va shahar “Dehqon bozori” MChJ rahbarlari birgalikda olingan 100 000,0 (yuz million) so‘m mablag‘ni qaytarish yuzasidan tarmoq jadvalini ishlab chiqib, 2024-yil 2-chorak yakuniga qadar ijrosini ta’minlasin.

4. Ohangaron shahar hokimining o‘rinbosarlari hamda bo’lim boshliqlari (A.Karimdjanov, Z.Karimov, Sh.Ismatova) mazkur qaror bilan ajratilgan mablag'larni o'rnatilgan tartibda va maqsadli sarflanishini ta'minlasinlar.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Xusanov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**